

AXLOQIY MADANIYATNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Karayev Nizam Abduraimovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

Karayev@inbox.ru

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ

Караев Низам Абдураимович

Соискатель института повышение квалификации МВД Республики Узбекистан

SOCIAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF MORAL CULTURE

Karayev Nizam Abduraimovich

Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: Mazkur maqolada axloqiy madaniyatning ijtimoiy-falsafiy asoslari masalasi yoritilgan. Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo'ldi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy hatti-harakatlarning yig'indisidir. Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyatning asrlar osha o'z tajribasi orqali erishgan natijalaridir.

Kalit so'zlar: axloq, xulq, me'yor, hatti-harakat, qoida, ong, tafakkur.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос социально-философских оснований нравственной культуры. Нравственная культура проявляется в человеке через его поведение. Поведение – это совокупность нравственных действий, определяемых разумом и волей людей. Правила нравственной культуры являются результатом многовекового человеческого опыта.

Ключевые слова: мораль, поведение, норма, поведение, правило, сознание, мышление.

Abstract: This article discusses the socio-philosophical foundations of moral culture. Moral culture is manifested in a person through his behavior. Behavior is the sum of moral actions determined by the consciousness and will of people. The rules of moral culture are the results achieved by humanity through its own experience over the centuries.

Keywords: morality, behavior, norm, behavior, rule, consciousness, thinking.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Axloq kishilarning fe'l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiyi va shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Axloq normalari jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan shaxs fe'l-atvoriga qo'yiladigan talabdir. Bu normalar shaxsnинг jamiyatga – Vatan, davlat, millat, guruhga munosabatini, shuningdek, shaxsnинг turmushdagi, ayrim kishilarga, kasbi-koriga, mutaxassisligiga, hatto o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlardagi hatti-harakatni ham o'z ichiga oladi.

Axloqiy madaniyatning kelib chiqishi va mohiyatini, kishilik jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, jamiyat, zamon va insoniyat uchun namuna bo'la oladigan ijobiy hatti-harakatlar yig'indisidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Axloq - ruscha – moral, lotincha "mores", "moralis" so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odad demakdir. Axloq - ijtimoiy ongning muayyan shakli bo'lib, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy

hayotida bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarining, ya’ni hatti-harakat prinsiplari va normalarining yig‘indisidir. Axloq so‘zi, tushunchasi ham arabcha bo‘lib, xulq so‘zining ko‘pligidir [1].

“Axloq” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, “xulq” so‘zining ko‘plikdagi shaklidir. “Axloq” iborasi umumiy tushuncha sifatida inson fe‘l -atvori va hatti-harakatining keng qamrovli qismini bildiradi [2]. Axloqni umumiy tushuncha sifatida insonning hayotiy faoliyati nuqtai nazaridan tahlil etadigan bo‘lsak, uning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq va eng qamrovli qismini axloq egallaydi. Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroqli hatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Xulq esa oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan yoqimli insoniy hatti-harakatlarning yig‘indisidir.

Axloqiy madaniyat qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy qismi hisoblanib, keyinchalik (Arastudan so‘ng) alohida falsafiy yo‘nalishda shakllanib borgan. Axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur taraqqiyotini tashkil etib amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga yetaklashga xizmat qiladi.

Axloqiy madaniyat qoidalari bu insoniyating asrlar osha o‘z tajribasi orqali erishgan donish-mandlik namunalarini hikmatlar, naqlar, matal - maqollar tarzida bayon etiladigan, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o‘rgatadigan, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradigan me’yorlardir [3]. Zero, insonning har bir hatti-harakati va niyati uning axloqiy madaniyatiga tegishli bo‘lib, unda muayyan ijobiy faoliyat bilan birga ezgulik va nafosat xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Ma’lumki, kishilik jamiyatni doimo taraqqiyotda ekan, uning axloqiy madaniyatga oid qarashlari ham doimo o‘zgarib, rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar ham o‘zgarib rivojlanib boraveradi.

Axloqiy madaniyat insonda uning xulqi orqali namoyon bo‘ladi. Xulq esa kishilarning ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy hatti-harakatlarning yig‘indisidir. Kishilarning xulqi jamiyatda axloqiy madaniyatlarni shakllantirish, jamiyatning axloqiy muhitini yaratishda katta rol o‘ynaydi. Xulqqa xos xususiyat elementi axloqiy hatti-harakatdir. Hatti-harakat kishining ijobiy yoki

salbiy xislatlarini namoyon etadigan faoliyatdir. Boshqacha qilib aytganda, hatti-harakat kishining ongli yo‘naltirgan va yakunlangan harakati yoki faoliyatidir. Hatti-harakatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyat qilishdangina iborat emas. Ular faoliyatsizlik – sukut, passivlik, loqaydlik yoki bo‘lmasa imo-ishora, qiliq, ohang tarzidagi munosabatlarda ham ifodalaniishi mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Xulqda, kishining hatti-harakatlarida, uning ichki, ma’naviy dunyosi, fikri, tuyg‘usi, intilishlari, odobi aks etadi. Jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy talablarning ham ijobiy, ham salbiy ko‘rinishlari hatti-harakatda namoyon bo‘ladi. Axloq, ong va faoliyat birligi tarzida, yaxshilik va yomonlikning, adolat yoki adolatsizlikning, vijdonsizlik yoki vijdonsizlikni namoyon etadigan harakatlar yig‘indisidir [4]. Shu sababli xulq va hatti-harakatlarga qarab biz o‘z mulohazalarimizni bildira olamiz. Ma’lumki, muayyan bir harakatning o‘zi ham yomonlik tariqasida baholanishi mumkin. Albatta bunday holda ikkala baho ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Axloqiy baholash noto‘g‘ri subyektiv bo‘lmasligi uchun muayyan jamiyatda faqat birdan-bir mumkin bo‘lgan axloqiy munosabatlarning obyektiv mezoniga, umuminsoniy xarakteriga tayanmoq kerak.

U yoki bu faoliyatni axloqiy baholashda kishining o‘z harakatlariga subyektiv munosabatini ifodalaydigan axloqiy motiv muhim rol o‘ynaydi. Xulqning motivlari ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Biz tarkibida egoistik motivlar bo‘lgan har qanday hatti-harakatlarni, garchi u ob‘yekтив jihatdan ijobiy natijalar bergan bo‘lsa-da, qoralaymiz. Hatti-harakatlar boshqa kishining, jamiyatning, guruhning manfaatlari bilan dahldor bo‘lgan chog‘da axloqan baholanadi. Kishilarning hatti-harakatlari o‘z-o‘zidan emas, balki ijtimoiy hayotning bir bo‘lagi bo‘lgani uchun yaxshilik yoki yomonlik deb baholanadi, qadrlanadi. Sirdan qaraganda to‘g‘ri ish qiladigan bo‘lib ko‘rinsa-da, ammo bu o‘zining shuhrati, obro‘sisi, foydasini ko‘zlab qilinayotgan hatti-harakatlarni axloqiy deb bo‘lmaydi. Hatti-harakatlarning axloqiylik darajasi onglilik, samimiylilik, beg‘arazlik, ixtiyoriylik, erkin tanlanishi bilan axloqiy qiymatga egadir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Inson muayyan jamiyatda yashab turib o‘sha jamiyatdan xoli bo‘la olmaydi. Bu esa kishilarning

axloqiy qiyofasiga ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatib, uning yurish-turishiga nisbatan muayyan tarbiyaviy-ma’naviy talablarni ham qo‘yib boradi. Odamlarga baho berganda, uni yoshidan, kasbidan, mutaxassisligidan, darajasidan qat’iy nazar axloqli yoki axloqsiz, tarbiyalı yoki tarbiyasiz ekanligi, ziyoli, o‘qigan bo‘lsa ham, uqmagan ekanligiga urg‘u beriladi. Bu orqali kishilarning ma’naviy qiyofasi, xulq-atvori, yaxshi yoki yomon hattiharakatlari ifodalanadi.

Qarangki, har bir odam bir olam bo‘lsa ham, u takrorlanmas noyob, o‘ziga xos bir mo‘jiza bo‘lgan taqdirda ham bir o‘zi yashay olmaydi, baxtli ham, baxtsiz ham bo‘la olmaydi. Shunday ekan, odam o‘z mohiyati bilan, tabiat bilan jamiyat bilan chambarchas bog‘liq, jamoa bo‘lib yashaydi, tirkchilik qiladi, jamiyatdan namuna oladi va jamiyatga o‘z hissasini qo‘sadi. Jamiyatga ijobjiy yoki salbiy jihatdan hissa qo‘sish uning aql-idroki, vijdoni va irodasiga, imoni-yu e’tiqodi hamda turmush tarziga, ma’naviy-tarbiyasi va axloqiy madaniyatiga bog‘liqdir. Zero, ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo momot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi” [5]. Buyuk ma’rifatparvarning ushbu so‘zlarasi asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, u bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Chunki ta’lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi” [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Jamiyatda insonning inson bilan tirikligi bu ko‘hna haqiqatdir. Ammo har bir inson o‘zi bir olam bo‘lib yaralgan va hech kim hech kimga aynan o‘xshamaydi. Shu sababli ham insonning xohish va ehtiyojlari, orzu va umidlari, yaxshilik va yomonlik, baxt va muhabbat haqidagi fikrlari ham turlichadir. Bunday har xillik insonning niyat va istaklarini ro‘yobga chiqarishi uchun inson turli yo‘llardan borishiga zamin yaratadi. Yaxshilik bor joyda yomonlikning bo‘lishi insonlar orasida turli axloqsizliklarning shakllanishiga va noqonuniga hatti-harakatlarning sodir etilishiga olb keladi. Aynan ushbu hatti-harakatlarni nazorat qilish bugun

nonun bilan malakalanib uni nazorat qilib borish ichki ishlар organlari zimmasidadir.

Bugungu kunda jamiyatda oddiy fuqaro nazdida nafaqat o‘z kasbini e’zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolat timsoli sifatida gavdalanadigan ichki ishlар organlari xodimlari yuksak axloqiy madaniyatga ega bo‘lishi, ularning o‘z umrini millati va Vataniga hamda inson manfaatlariga bag‘ishlagan yuksak axloq egasi sifatida o‘zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bo‘lib, o‘sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi desak xato bo‘lmaydi. Agarda, jamiyatda buning aksi bo‘lsa ya’ni, qonun himoyachisi bo‘la turib, o‘zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo‘lida oqni qora, qorani oq deb tursa bunday xodim axloqsizlik qilgan bo‘ladi. Natijada, oddiy fuqarolar nazdida birgina axloqsiz kishi uchun butun jamiyatningadolatsiz ekanligi to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘onib, bu tasavvurning muntazam kuchayib borishi oxir-oqibat o‘sha jamiyatni tanazzulga olib keladi. Eng asosiysi, insoniyat tarixida axloqsizlikning yuqori cho‘qqisi bir millat yoki mamlakat uchun zarar yetkazib (totalitar tuzum hukmdorlari hatti-harakatlari misolida) umumbashariy miqyosdagagi fojealarga olib kelganligi o‘sha davrnio‘rganuvchi deyarli barcha tadqiqotlarda asoslangan faktlar bilan yoritilganligi ham ayni haqiqatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik: Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. — 328 b.
2. [O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000.
3. L.Muhammadjanova, Abdulla Sher, G.Shadimetova. Axloq falsafasi. Darslik. Toshkent, 2023. -208.
4. В.Семёнов. О перспективах человека в XXI столетии. // Вопросы философии. Москва, 2005, №9, 27-с.
5. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T., 1992.
6. Баркамол авлод орзуси. –Тошкент: Шарқ, 1999. 3-бет.